



International Conference on Computing, Artificial Intelligence and Information Systems

Hosted Online from Warsaw, Poland

Date: 11th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

TALABA-YOSHLARNING AXBOROT SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INTERNET HAVFSIZLIGINI OLDINI OLISH

Xaydarova Xilola Rahimberdievna
Qo‘qon universiteti Andijon filiali dotsenti,
psixologiya fanlari nomzodi

Qo‘ldasheva Xolida Mirodil qizi
BT 25-07 guruh talabasi

Annotatsiya:

Maqolada internet xavfsizligi va yoshlarning virtual savodxonligini rivojlantirishdagi ba’zi bir muammolarning bugungi kunda dolzarb ekanligi tahlil qilingan. Shuningdek, virtual, madaniyat, media madaniyat, virtual savodxonlik, media savodxonlik kabi tushunchalariga alohida izoh berilgan bo‘lib, ular axborot va ommaviy zo‘ravonlikdan himoya qobig‘iga o‘xshatilgan. Bugungi kunda dunyo ommaviy axborot vositalarida axborotni tanlash va to‘g‘ri baholash madaniyati (virtual savodxonlik) dolzarb muammolardan biri ekanligi va internet xavfsizligi uchun nafaqat yoshlar, balki har bir ota-ona virtual-pedagogik madaniyatga ega bo‘lishi yorqin misollar orqali ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: Yoshlar, ota-ona, oila, maktab, mahalla, tarbiya, madaniyat, virtual, media, axborot, kompyuter, internet, feysbuk, televizor, o‘qituvchi, savodxonlik, virtual nazorat, farzandlar, milliy g‘urur.



International Conference on Computing, Artificial Intelligence and Information Systems

Hosted Online from Warsaw, Poland

Date: 11th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

XX asrning ikkinchi yarmi tezkor, keng ko‘lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanish davri sifatida, ular hayotning deyarli barcha jabhalariga va inson faoliyatiga kirib borishi, shuningdek, axborot makonining globallashuvi, butun jahon rivojiga ta‘sir ko‘rsatayotgan omil sifatida e‘tirof etiladi. E‘tiborli jihati, mamlakat ichidagi va tashqi dunyodagi faol axborot almashuviga odamlar ehtiyojining juda ortib borishidir. Axborot sohasining bunday tezlik bilan rivojlanishi, uning potentsiali va imkoniyatlarining o‘sishi, uning jamoatchilik va davlat hayotidagi turli xil yo‘nalishlarida keng tarzda ishlatilishi, yangi XXI asrdagi odamzod taraqqiyotini aniqlab beruvchi muhim omillardan biri bo‘la oladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2019 yil 3 maydagi PQ-4307 son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, yoshlarni mustaqil hayotga dunyoqarashi keng, faol fuqarolar etib tarbiyalash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma‘naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori 2019 yil 31 dekabrda tasdiqlandi. Ushbu Konsepsiyada ota onalarning farzand tarbiyasi bo‘yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog‘i orqali tarqatilayotgan g‘arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi sog‘lom dunyoqarashni shakllantirishga qaratilgan alohida chora-tadbirlarga e‘tibor berilgan. Jamiyatda ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish, oilaviy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan turli ma‘naviy tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni tashkil etish, xududlar bo‘yicha oilalarda sog‘lom tarbiyaviy muhitni yaratish va ota-onalarga tarbiya usullarini



International Conference on Computing, Artificial Intelligence and Information Systems

Hosted Online from Warsaw, Poland

Date: 11th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

o‘rgatishga qaratilgan maqsadli va manzilli targ‘ibot tadbirlari va treninglar o‘tkaziladi (1).

Pedagogika fanlari doktori, professor M.Quronov o‘zining “Bolam baxtli bo‘lsin desangiz...” deb nomlangan tarbiya kitobida “Tarbiyadagi milliy g‘urur, vijdoniylik, odob, mafkuraviy onglik, vatanparvarlik, muloqot madaniyati kabi ijobiy xislatlarga hamda boshqa qator katta-kichik qusurlarga e‘tibor qilmaslik oqibatida ko‘z o‘ngimizda shakllanayotgan shaxs taqdirida jiddiy asorat qoldiradi, unda bepisandlik, loqaydlik, beparvolik, xudbinlik kabi illatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi”, degan fikrlari bugungi kunning dolzarb muammolariga mos keladi (3.261B)

Vertual so‘zi rus-o‘zbek lug‘atida extimoliy muayyan sharoitda mavjud bo‘lishi mumkin yoki kompyuter vositalari yordamida aks ettiriladigan virtual borlik, voqelik (kompyuter qurilmalari yordamida xaqiqiy mavjud sharoitga o‘xshash sharoitni yaratish, hosil qilish) kabi manolarni bilishimiz mumkin. Madaniyat so‘zi esa arabcha, madina - shahar, maskan, taraqqiyot o‘chog‘i kabi ma‘nolarini anglatib, tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan insoniy faoliyatining o‘ziga xos shaklini ifodalaydigan tushuncha bo‘lib, alohida individning hayotiy faoliyati, ijtimoiy guruh yoki jamiyatning faoliyat usulini aks ettiradi. Demak, virtual madaniyat kompyuter, axborot vositalari orqali aks etilidigan o‘zaro munosabatlardagi insoniy faoliyat tushiniladi. Virtual madaniyatga o‘xshash iboralar virtual savodxonlik, mediamadaniyat, mediasavodxonlik bo‘lib, bu axborot va ommaviy zo‘ravonlikdan himoya qobig‘iga o‘xshaydi. Go‘yoki ommaviy axborot vositalarini targ‘ib qilishda raqamli savodxonlik deb qarashimiz ham mumkin.

Bugungi kunda internet xavfsizligi doirasida axborotni tanlash va to‘g‘ri baholash madaniyati (virtual madaniyat) dolzarb muammolardan biri sanaladi. Bu



International Conference on Computing, Artificial Intelligence and Information Systems

Hosted Online from Warsaw, Poland

Date: 11th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

muammoni yechimini izlashda avvalo oilada xar bir ota-ona virtual-pedagogik madaniyatga ega bo'lishi lozim, deb o'ylaymiz. Buning uchun har bir ota-ona farzandlariga internet va ommaviy axborot vositalari (televizor, kompyuter, internetdagi chat, forum, feysbuk, tvitter) dan unumli foydalanishni avvalo o'zlar bilgan xolda farzandlariga ham o'rgatishi zarurdir. Yuqorida keltirilgan internet, ommaviy axborot vositalari o'zaro aloqa olib borishga xizmat qiluvchi vositalar bo'lib, ular orqali kishilar bir-biri bilan so'zlashib, turli muloqotlar olib borish imkoniyatlariga ega bo'lishmoqda. Ular ushbu imkoniyatlarni ishga solib, o'z faoliyatlarini amalga oshirib, ma'lumot orttirishmoqda, bilim olishmoqda, tajriba almashilmoqda, savdo kabi tijorat, reklama ishlarini yo'lga qo'yishmoqda. Bu albatta har bir sohada aniq ko'zga tashlanmoqda. Bir tomondan masofaviy ta'lim olish imkoniyatini bersa va intellektual, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan real muloqotning virtual shaklga aylanib qolayotganini ham ko'rishimiz mumkin. Endi ota-onalar o'z farzandlari bilan ko'proq yuzma-yuz emas, balki virtual aloqada bo'lib, ularni nazorat qilmoqda. Taqdir taqozosi bilan uzoq masofada, Xorijda ishlayotgan yoki o'qiyotgan ota-onalar, farzandlar faqat virtual shaklda muloqot olib bormoqda. Bu albatta hozirgi axborotlashgan jamiyatning ma'lum bir ko'rinishlari deb qaraydigan bo'lsak, u xolda ijtimoiy farovonlik, ijtimoiy totuvlik komil inson shaxsini shakllantirishda, tarbiyalashda xizmat qilsa, jamiyat a'zolarining virtual madaniyati ham rivojlanib takomillashib borish kerak edi. Lekin afsuski internet va ommaviy axborot vositalaridan foydalanishda ayrim muammolar ham ko'zga tashlanmoqda.

Biz bu borada "bolalarga zamonaviy kompyuterlar yoki uyali aloqa vositalarini olib bermaslik yoki ularga ijtimoiy saytlarga kirishiga yo'l qo'ymaslik kerak", demoqchi emasmiz. Shu o'rinda O'zbekistonning birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" asarida "Bugungi



International Conference on Computing, Artificial Intelligence and Information Systems

Hosted Online from Warsaw, Poland

Date: 11th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

kunda yoshlarimiz nafaqat o‘quv dargohlarida, balki radio-televidenie, matbuot, internet kabi vositalar orqali xam rang-barang axborot va ma’lumotlarni olmoqda. Jahon axborot maydoni tobora kengayib borayotgan shunday bir sharoitda bolalarimiz ongini faqat o‘rab-chirmab, uni o‘qima, bunga kirma, deb bir tomonlama tarbiya berish, ularning atrofini temir devor bilan o‘rab olish, hech shubhasiz, zamonning talabiga ham, bizning ezgu maqsad-muddaolarimizga ham to‘g‘ri kelmaydi. Nega deganda, biz yurtimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat qurish vazifasini o‘z oldimizga qat‘iy maqsad qilib qo‘yganmiz va bu yo‘ldan hech qachon qaytmaymiz." [2.71 b] deb ta’kidganlarini yodga olish mumkin.

Shuning uchun yoshlarni internet xavfsizligi uchun asrab-avaylash xamda yuqorida keltirilgan buzg‘unchi illatlardan himoya qilishimiz uchun avvalo ularni virtual savodxonlikka ega bo‘lishi zarur, deb o‘ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori
2. Karimov I. A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 108 b.
3. Quronov M. Bolam baxtli bo‘lsin, desangiz (Ota-onalar uchun). T.: “Ma’naviyat”, 2013.-320 b.
4. Quronov M. va boshqalar. Oilada ma’naviy - axloqiy tarbiya. Ommabop risola. “Mahalla ziyosi” respublika o‘quv uslubiy markazi.-T.: 2015y. - B.72



International Conference on Computing, Artificial Intelligence and Information Systems

Hosted Online from Warsaw, Poland

Date: 11th June, 2026

Website: <https://econferencia.com>

5. Xaydarova X.R. Axborot va xavfsizlikni ta'minlashda virtual- pedagogik madaniyatni rivojlantirish zarurligi. Ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar. T.: 2022 y. 5-son. ISSN-2181-7286. 57-61b.